

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

## **O‘ZBEK VA QORAQUALPOQ XALQ OG‘ZAKI IJODIDA “YO RAMAZON” QO‘SHIQLARI**

**Axmedova Aynurra Quanishbay qizi,  
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti  
talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqimizning mavsumiy marosim aytimlariga kiruvchi “Yo ramazon” qo‘shiqlari va ularning mazmun-g‘oyalari haqida so‘z yuritilgan, ularning o‘zbek va qoraqalpoq tillardagi variantlari qiyoslangan, namunalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** xalq og‘zaki ijodi, mavsumiy marosim, xaql qo‘shiqlari, “Yo ramazon” qo‘shiqlari.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о песнях «Йо Рамадан», которые входят в сезонные обряды нашего народа, их содержание и идея, сравниваются их варианты на узбекском и каракалпакском языках, приводятся примеры.

**Ключевые слова:** фольклор, сезонный обряд, народные песни, песни «Йо Рамадан».

**Annotation:** This article talks about the "Yo Ramadan" songs, which are included in the seasonal rituals of our people, and their content and ideas, their versions in Uzbek and Karakalpak languages are compared, and examples are given.

**Key words:** folklore, seasonal ceremony, folk songs, "Yo Ramadan" songs.

Dunyoda qaysi xalq bo‘lmisin, albatta, o‘z xalq og‘zaki ijodiga ega. Har bir xalqning xalq og‘zaki ijodi bebaho qadriyat sanaladi, ildizlari esa qadimiy davrlarga borib taqaladi. Xalq og‘zaki ijodi ilmiy sohada “folklor” atamasi bilan yuritiladi. Bu keng tushuncha. Xalq og‘zaki ijodi o‘z ichiga xalq qo‘shiqlari, xalq dostonlari, lapar, askiya, yor-yor, ertak, rivoyat, afsona, milliy marosim va qadriyatlar, an’analalar va boshqa ko‘plab tushunchalarni qamrab oladi. Mana shunday urf-odatlar va marosimlarda har bir xalqning milliy o‘zligi, tarixi, qadriyatlari aks etadi. Inson xalq marosimlarisiz yashay olmaydi, hayoti davomida u bilan yonma-yon yashaydi.

Xalqimizning milliy marosim va an’analari orasida xalq qo‘shiqlari alohida ajralib turadi. Sababi unda ijodkorning his tuyg‘ulari, ichki kechinmalari, ruhiy holati ifodalanadi. Xalq qo‘shiqlari, asosan, she’riy shaklda, barmoq vaznida yaratilgan va o‘z navbatida ular ham lapar, aytishuv, yor-yor, alla, kelin salom, marsiya, mehnat qo‘shiqlari, oilaviy va mavsumiy marosim qo‘shiqlari kabi mavzuviy guruhlarga ajralib ketadi [2:11].

Mavsumiy marosim folklorining qadimiy janrlaridan biri hisoblangan “Yo ramazon” qo‘shiqlari yurtimizning deyarli barcha hududlariga keng tarqalgan. U xalq orasida “yo ramazon”, “rabiman”, “rabigon”, “rayvon”, “ramazon”, “ravan”, “rabibon”, “o‘rebezon” kabi nomlar bilan ataladi. Jumladan, qoraqalpoq xalq og‘zaki folklorida “Yaramazan” deb nomlanadi (keyinchalik “yo” undov so‘zi “ramazon” so‘ziga qo‘shilib ketgan). Ushbu qo‘shiqlarni ro‘za oyi Ramazonnинг uchinchi

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

kunidan e’tiboran o‘g‘il bolalar iftorlikdan keyin yurib aytishgan. Har bir hovli oldiga borganda o‘sha uy sohiblarining yaxshi sifatlarini aytib kuylashgan. Uдумга ko‘ra, evaziga bolalarga qand-qurs, shirinlik, pul, tanga, belbog‘, pishiriq, kulcha, xullas ko‘ngildan chiqarib biror narsa hadya qilingan. “Yo ramazon” qo‘shiqlarini aytuvchilar uy egalarining olivjanobligi, mehmondo‘stligi va serhimmatliligin ta’rif-tavsif qilib, ularga sihat-salomatlik, uzoq umr, bitmas-tuganmas boylik tilashgan. Bu qo‘shiqlarning hayotbaxshligini ko‘rsatuvchi eng muhim belgilaridan biri shundaki, ular oilafa farzand tilash, har bir xonadondan alla sadolari yangrab turishiga bo‘lgan ezgu umid mujassamlashgan:

*Yo ramazon aytib keldik eshigingizga,  
Qo‘chqorday o‘g‘il bersin beshigingizga,  
Qo‘chqorday o‘g‘il bersa beshigingizga,  
Kim kelib, kim ketmaydi eshigingizga [3:229].*

Qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodida:

*Yaramazan ayta keldim esigiňe,  
Qoshqarday ul bersin besigiňe,  
Dáwlet quasi qonsın esigiňe,  
Áriy, sháriy, yaramazan [5:28].*

Ma’lum bo‘lganidek, qoraqalpoq xalqida aytildigan “Yo ramazon” qo‘shiqlari ham har bir oilaga baxt, baraka, eng oliy ne’mat hisoblangan farzand tilash kabi ezgu niyatlardan tashkil topgan.

Ushbu aytimlarni eng avvalo, N.Ostromov tomonidan o‘rganilgan, bu haqida keyinchalik Mamatqul Jo‘rayevning “Ulug‘ oy umidlari. “Yo ramazon qo‘shiqlari” tadqiqotida va boshqa xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq qator asarlarda ma’lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, “Yo ramazon” qo‘shiqlarida Islom dini va payg‘ambarlarning ezgulik tarafdori bo‘lganliklari, yovuzlarga qarshi kurashib, mo‘jizalar ko‘rsatganliklari haqida ham ko‘plab misollar uchraydi. Masalan, Nuh payg‘ambar davrida olam qaytadan yaralgan. Sababi, o‘sha davrda yaxshiliklardan ko‘ra yomonliklar ko‘paygan, Allohga, uning yakka-yu yagonaligiga shirk keltirishlar bo‘lgan. Nuh alayhissalom ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlash uchun Alloh tomonidan yuborilgan. U odamlarni Islom atrofida birlashishga chaqirgan. Rivoyatlarda aytishicha, qirqta ayol va erkak, jami saksonta odamdan boshqasi uning gapiga qulq solmagan, uni payg‘ambar – Allohnинг elchisi deb qabul qilmagan. Nuh payg‘ambar Allohdan yordam so‘rab, nido qiladi. Alloh unga kema yasashni buyuradi. U kema yasab, unga o‘sha saksonta odam, o‘zining uchta o‘g‘li va o‘n sakkiz ming olamdagи barcha hayvonlardan juft-juftdan o‘tkazadi. Shundan keyin dunyoni suv bosadi, yerdagi barcha maxluqlar qirilib ketadi. Faqatgina Nuh

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

alayhissalom va uning kemasidagilar tirik qoladi. O‘sha paytda Iblis (shayton) ularga yomonlik qilmoqchi bo‘ladi. Kemadagi jonivorlardan sichqonning oldiga kelib: “Shuncha hayvonlarga qaraganda sening tishing o‘tkirroq. Bunaqa qorning ochib o‘tirgandan ko‘ra kemaning tubini tesh. Narigi tarafda ko‘plab don-dun, oziqlar bor, deydi. Shaytonning yolg‘onlariga ishongan sichqon kemani teshadi va kema suvga g‘arq bo‘la boshlaydi. Shu paytda bitta ilon uch buklanib, kemaning teshilgan joyiga kirib, kemani ofatdan saqlab qoladi. Ushbu ibratli voqeа qoraqalpoq og‘zaki adabiyotining “Yo ramazon” qo‘shiqlarida quyidagicha aks etgan:

*Burinǵı payǵambarım keme jongan,  
Kemesin tishqan tesip suwǵa tolǵan,  
Bir jilan úsh búklenip tiǵın bolǵan,  
Muhammed úmmetine yaramazan [5:27].*

Bunday misollar o‘zbek xalq og‘zaki ijodining “Yo ramazon” aytimlari matnida ham uchraydi:

*Rabiman, yo rabiman, yo ramazon,  
Rabiman aytib keldik eshicingizga.  
To ‘qiday o ‘g ‘il bersin beshicingizga.  
Xudoyim bergen o ‘g ‘il mullo bo ‘lsin,  
Otining egarlari tillo bo ‘lsin.  
Payg‘ambarning o ‘n bir o ‘g ‘li bor edi,  
Hammasidan Shoyusuf gulzor edi.  
Shoyusufni ovga olib chiqdilar,  
Chaga (chohga) tashlab, bo ‘ri yedi, dedilar.  
Onasi yig ‘lab bordi cha boshiga,  
Chashmalar ravon to ‘ldi ko ‘z yoshiga...  
Oq tanga, ko ‘k tanga,  
Chiqarib bering, jon yanga! [4:47]*

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning mavsumiy marosim qo‘shiqlariga kiruvchi ushbu “Yo ramazon” qo‘shiqlari musulmonlarning eng muqaddas oyi Ramazon oyida aytildi. Unda xalqimizning eng yaxshi orzu-umidlari, ezgu niyatları, Allohning elchilari – payg‘ambarlarning ibratli hayotlari aks etar ekan. Ma’lum bo‘lganidek, ushbu aytimlar har bir viloyat va tumanlarda, turli xil shevalarda, turkiy xalqlarda har xil aytilda ham, qo‘shiq matnlari farqlansa ham mazmuni, g‘oyasi o‘sha-o‘sha – ezgu tilak va niyatlar. Xalqimizning mana shunday aytim qo‘shiqlarini respublikamizning barcha hududlaridagi turli xil variantlarini o‘rganish, yig‘ish va ularni qiyoslash kabilar muhim vazifalardandir.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Jo‘rayev M. O‘zbek mavsum marosim folklori. – Toshkent: Fan, 2009.

**“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI  
TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALAR”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

2. Jo‘rayev M, Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007.
3. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
4. Mirzayev T va boshq. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent, 2008.
5. Qazaqbaev S. Qaraqalpaq salt-dástúr jirları. – Nukus: Qaraqalpaq baspasi, 2012.

**Internet saytlari:**

1. <https://daryo.uz>
2. <https://uzhurriyat.uz>